



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2024-yil " 23 "-may

06-30-834-son

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'lifi
vaziri, Toshkent shahar va viloyat
maktabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmalari boshliqlariga**

**Tuman (shahar) maktabgacha
va maktab ta'lifi bo'limi
boshliqlariga**

O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" Qonuniga muvofiq 2024-yil uchun respublika budgetidan Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligiga ajratilgan mablag'larning cheklangan miqdorlari doirasida respublika budgetidan moliyalashtiriladigan ta'lim tashkilotlarining joriy yil uchun I va II guruh xarajatlari bo'yicha xarajatlar smetalari "UzASBO-2" dasturiy majmuasida yaratilgan modullar doirasida shakllantirilib avtomatik ravishda tegishli mablag'lar rejalashtirildi.

2023-2024-o'quv yili uchun umumta'lim muassasalarida dars jarayonlari yakunlanayotganligi munosabati bilan ularda faoliyat yuritayotgan xodimlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq yillik asosiy mehnat ta'tiliga chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi 263-son qarori bilan Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yordi tasdiqlangan.

Shu munosabat bilan, xodimlarga o'rnatilgan tartibda asosiy mehnat ta'tiliga chiqarilishi hamda mehnat ta'tilda bo'lgan vaqt uchun o'rtacha ish haqi to'lab berilishini ta'minlash maqsadida, **Sizdan** quyidagilarni qat'iy nazoratga olishingiz so'raladi:

birinchidan, xodimlarga har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillar berilishini xarajatlar smetasida rejalashtirilgan mablag'larga mutanosib ravishda

info@uzedu.uz



YouTube
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'lifi vazirligi



www.uzedu.uz



uzedu



uzedu



uzedu.uz

reja-jadvali asosida (navbat bilan) ta'minlash hamda belgilangan tartibda buyruqlarni rasmiylashtirish va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish;

ikkinchidan, mehnat ta'tilining umumiy davomiyligini hisoblab chiqarishda asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari jamlaganda ularning davomiyligini belgilangan me'yorlardan oshib ketmasligini ta'minlash;

uchinchidan, mehnat ta'tilini olish huquqini beradigan ish stajini, uning davomiyligini ishlab berilgan vaqtga mutanosib ravishda hisoblashda, shuningdek uni uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirishda amaldagi qonunchilik talablari asosida amalga oshirish;

to'rtinchidan, har yilgi mehnat ta'tili birinchi ish yilidagi o'qituvchilarga har yilgi mehnat ta'tili yozgi ta'til davrida to'liq davomiylikda va ishga kirgan vaqtidan qat'i nazar, ishlab bergen vaqtiga mutanosib ravishda haq to'langan holda berilishini;

beshinchidan, xodimni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishda aniq sabablari keltirilmagan holatlarga **chek qo'yish** va kelgusida bunday holatlarga **yo'l qo'yemaslik**;

Bu borada ta'lim tashkilotlarining yillik asosiy mehnat ta'tili bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda mablag'larning sun'iy ravishda yetishmovchiligi (defitsit)ni, shu orqali xodimlarning noroziliklarini keltirib chiqarmaslik hamda ushbu holatlar vujudga kelgan taqdirda chuqr tahlil qilib, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha joylardagi birinchi rahbarlar shaxsan javobgar ekanligini eslatib o'tgan holda, kamchiliklarga yo'l qo'yilgan holatlarda hududlardagi rahbar va mas'ul xodimlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko'riliishi haqida ogohlantiriladi.

Vazir o'rinnbosari



S. Radjabov